

INGLIZ TILI O'RGANAYOTGAN O'QUVCHILARDA LEKSIK BOYLIKNI OSHIRISHDA METODIK YONDASHUVLAR VA TUSHUNCHALAR

Namangan Davlat Chet tillari

Instituti magistr talabasi

Azimova Mohinur Murodjon qizi

E-mail: mohinurazimova352@gmail.com

Telefon: +998943529977

“Ta'limda interaktiv metodlar qo'llanishi o'quvchilarini faollikga, mustaqil fikrlashga va erkin muloqotga undaydi”

Saydaliyeva M.A. Namangan Davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan Ingliz tilini o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilari va mактабгача yoshdagи bo'lган bolalarda til ko'nikmalarini rivojlantirish haqida tushunchalar va metodik tahlil ko'rsatmalar berilgan. Til o'rganayotgan o'quvchilarning o'rganish darajasi leksik, didaktik, metodik, psixologik jihatdan ham o'rganish ko'nikmasi o'rganib chiqilgan. Maktabgacha va boshlang'ich sinf o'quvchilarini leksik til ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: *leksika, til ko'nikmaları, didaktik yondashuv, pedagogik strategiyalar, til ko'nikmasi, pedagogik mahorat, kommunikativ yondashuv.*

Bolalarda til ko'nikmalarini rivojlantirish ularning shunchaki biror tilni o'rgatishga yoki qaytarib yod oldirishga emas balki ularning fikrlashi va dunyo qarashidagi o'zgarishlarga ham sabab bo'ladi. Til o'rganish jarayoni sababli bolalarning aqliy intelluktual jihatdan ham o'quvchilar bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi. O'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish ularga til o'rganishga bo'lgan ishtijoqlarini oshirishlari davomida o'z samarasini beradi.

“Insonning har qanday faoliyati, jumladan nutqiy faoliyat ham, tuzilishiga ko'ra undovchi (motivatsion), yo'llovchi va ijro qismlardan iboratdir^[1]. Masalan: biror narsani o'rganib bo'lib uni qo'llashga va yana yangisini o'rganishga qaratilgan faoliyatni Undovchi (mativatsion) deb olsak, uni amalda qo'llab suhbat davomida qo'llashga urunishimiz, qo'llashimiz ijrochi qismlar hisobladi. Jarayonning amaldagi isboti esa nutqiy faoliyatda ko'rindi. Bu uchun avvalambor nutqiy faoliyatni rivojlantirishimiz eng asosiy jihatlardan biri bo'ladi. Nutqiy faoliyatni rivojlantirish

^[1] Saydaliyeva M. A. Namangan Davlat Universiteti Respublika Ilmiy-Texnik Anjumanı. Chet til ta'limiga innovatsion yondashuv tamoyillari va ilmiy-amaliy tarjima muammolari. “Ingliz tilini o'qitishda o'gzaki nutq kompetensiyasini shakllantirish jarayonining amaldagi holati tahlil”. 2023.p.68-73

o'quvchilarga o'z ona tillarida ham o'rganayotgan xorijiy ikkinchi yoki undan ortiq boshqa tillarida ham samaralarali hisoblanadi. O'quvchilarning nutqiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun avvalambor ularning yosh xususiyati jihatdan psixologik tomonlama o'ylab tahlil qilish kerak. O'quvchilarni o'rganishi uchun jalb qilish maqsadida rasmi flashkardlardan, zanjir o'yinlardan foydalanishimiz mumkin yoki bolalarning o'z qiziqishlariga bog'lagan holda ham dars jarayonlari tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarning yoshga doir psixik xususiyatlarini tahlil etish orqaligina ularning til o'rganish qobiliyatlarini bilib olish ehtimolimiz oshadi. Bu borada o'rganishlarga nazar tashlasak, O'quvchilarning til o'rganish jarayonida yoshga doir bahs va munozaralar juda ham ko'plab topiladi. Ko'pchilik xorijiy mutaxasislar chet tilga doir ko'nikma va malakalarni 6-8 yoshdan keyin, ona tili va ikkinchi til to'liq shakllandan so'ng o'rgatish kerak, deb hisoblaydilar, aks holda ularning fikricha birinchi til, ya'ni ona tilining rivojlanishi sekinlashadi yoki o'z joyida qotib qolishi mumkin^[2].

Yosh jihatini hisobga olgan holda til o'rganish jarayonida o'quvchilardan va o'qituvchilardan ham alohida e'tibor talab qilinadi. O'quvchilarning o'rganish jarayoni o'qituvchisining pedagogik mahoratiga bilan uzviy bog'liq holda yaxlit bir jarayonni tashkil etadi. Jarayon mobaynida o'quvchidan talab qilinadigan asosiy omillardan hisobga olsak ular psixologik, didaktik va kommunikativ yondashuvlardir. Psixologik yondashuvda o'qituvchining ichki holati, uning o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi, eslab qolish darajasi, diqqatni jamlay olish ko'nikmalariga mos holda bo'lishi maqsadga mos bo'ladi. Didaktik ya'ni o'rgatish va o'qitish jarayoni. Didaktika o'qitish nazariyasi hisoblandi. Uning asosi esa soddadan murakkablik tomon bosqichma-bosqich davom etishi hisobida til materiali mazmuniy bo'limlarga ajratiladi. Har bir bosqich bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish esa didaktikaning asosiy talabidir. Kommunikativ yondashuvda o'quvchilar nutq faoliyatining ishtirokchisi bo'lib, uni grammatik qoidalarni va ko'nikmalarni yodlabgina qolmay uni amalda qo'llay olish real vaziatlarda muloqot qilishni o'rganadilar. O'rgatish mobaynida o'quvchilarning bilimlarini shakllantirish uchun o'qituvchidan talab qilinadigan asosiy jihatlarni hisobga oladigan bo'lsak u o'qituvchining fan dasturi undagi maqsad va vazifalarining belgilaganlik darajasi aks etgan holda o'quvchilar guruhining yoshi, o'rganish salaohiyatiga qarab har biriga ishlab chiqilgan metodikasi bo'lishi kerak. Ayniqsa maktab o'quvchilari o'rtasida dars jarayonini tashkil etish davomida o'qituvchidan alohida ehtiyoji bo'lgan bolalar ishtirok etishi mumkin bo'lgan darslarda yanada qo'shimcha mahorat talab qilinadi. Bu kabi bolalarda tengdoshlariga qaraganda ba'zan davolanishlari sabili yoki shu kabi muammolari natijasida darslardan ortda qolib ketish oqibatida o'rganishga bo'lgan ishtiyoqlari pasayib ketadi. Ularga shu sababdar ham

² Saydaliyeva, M.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutqning rivojlanish xususiyatlari. SamDu ilmiy axborotnomasi: Gumanitar fanlar seriyasi, 2(138), 2023.p.82

o'qituvchi tomonidan sezdirilmagan tomonlama dars jarayonlarini tashkil etish ahamiyatli hisoblanadi. Dars jarayonida har bir o'quvchi bilan individual ishlay olish qiyin lekin buning uddasidan chiqa olgan va dars taqsimotini to'g'ri boshqara olgan o'qituvchi pedagogik mahoratlari va salohiyatlari o'qituvchi deb e'tirof etiladi.

Xulosa qilib aytganda ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchilarda ularning bilib, ko'nikma va malakalarini yaxshi shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarning leksik ko'nikmalarini shakllantirish esa ularning til o'zlashtirish samarasini yanada tezroq va mukammalkroq qiladi. "Til o'rganishda eng avvalo lug'aviy boylik – leksik ko'nikmalar shakllantirilishi kerak, ayniqsa boshlang'ich bosqichda bu jarayon vizual materiallar va muloqotli vazifalar bilan boyitilishi lozim"[³]. O'quvchilarning til o'rganish va bilim egallashlarida shu kabi omillar hisobga olingan holda natija bo'ladi.

REFERENCE

1. Saydaliyeva M. A. Namangan Davlat Universiteti Respublika Ilmiy-Texnik Anjuman. Chet til ta'limiga innovatsion yondashuv tamoyillari va ilmiy-amaliy tarjima muammolari. "Ingliz tilini o'qitishda o'gzaki nutq kompetensiyasini shakllantirish jarayonining amaldagi holati tahlil".2023.p.68-73
 2. Saydaliyeva, M.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutqning rivojlanish xususiyatlari.SamDu ilmiy axborotnomasi: Gumanitar fanlar seriyasi, 2(138), 2023.p.82
 3. Azimov S.M. Ingliz tilini o'rgatish: maqsadlarni belgilash va motivatsiyani yuksaltirish. NamDPi "iqtidori talabalar ilmiy xabarları" ilmiy-uslubiy jurnalı. 2024.B- 9-16.
 4. Azimov, S. M. (2024). Xorijiy tillarni o'quvchilarga o'rgatishda metodik usul va yondashuvlar hamda o'qituvchining psixologik bilimi. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(7), 1–7.
- <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1140>
5. Azimov S.M., Sotvoldiyeva G.F., Qodiraliyeva B.F. (2024). English Language and the Importance of Learning it in Globalization. NamDPI, 138–143.
 6. Maxammadaliyeva S.A., Azimov S.M. (2024). Methods of Teaching English for Secondary School Students during Era of Modernization. Namangan Ilmiy-amaliy konferensiysi, s. 195–196.
 7. Dehqanova G.A (2023). NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS OF LEXICAL UNITS EXPRESSING THE ECONOMICAL CONDITION OF A PERSON'S LIFE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7951344>

³ Azimov S.M. Ingliz tilini o'rgatish: maqsadlarni belgilash va motivatsiyani yuksaltirish. NamDPi "iqtidori talabalar ilmiy xabarları" ilmiy-uslubiy jurnalı-2024 yil, Maxsus son B- 9-16.